



**ГРАФИК ПЛАТЕЖЕЙ\***  
к договору (контракту) от 16.06.2022 г. № 2022-674-2-41-ОВ

между «Вихоро Саоат» МСНЖ и Шофиркон туман Ободонлаштириш бошкармаси на общую сумму 467400000,00

Глава \_\_\_\_\_ 110  
Казначейский лицевой счёт \_\_\_\_\_ 401722860062587045203118002

(в сумах)

Наименование месяцев 2022 г.	Виды расходов** (соответствующий код бюджетной классификации)			Всего
	4233100			
Январь				
Февраль				
Март				
Апрель				
Май				
Июнь	467 400 000,00			467 400 000,00
Июль				
Август				
Сентябрь				
Октябрь				
Ноябрь				
Декабрь				
<b>Всего за год</b>	<b>467 400 000,00</b>			<b>467 400 000,00</b>

Всего 467400000,00 сум

Тўрт юз олтимиш етти миллион тўрт юз минг сум 00 тийин

сумма прописью

Из вышеуказанной суммы 140220000 сум или 30,00%\*\*\* от общей суммы договора подлежат предоплате в Июнь мес. 2022 г.

(\*) — Бюджетные организации, получатели бюджетных средств и получатели средств ДЦФ, предоставляют в казначейские органы в 2-х экземплярах;

(\*\*) — Указывается раздел, глава, параграф и статья расхода;

(\*\*\*) — Месячный \_\_\_\_\_%, от указанной выше суммы который необходимо оплатить до \_\_\_\_\_ числа текущего месяца. (Данное поле заполняется со стороны бюджетных организаций, получателей бюджетных средств и получателей средств ДЦФ в случае осуществления предоплаты в соответствии с порядком, установленным законодательством по договорам за оказание коммунальных услуг, услуг связи и предоставления в регулярном порядке товара (работ, услуг) указанных в правовых документах.)

Руководитель заказчика



Главный бухгалтер заказчика

Принял работник казначейского подразделения \_\_\_\_\_

(подпись)

«\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_ г.

(подпись)

Якубов Халим Махмудович

Ф.И.О.

(подпись)

Аъзамов Исок Камолович

Ф.И.О.

Получил работник заказчика \_\_\_\_\_

(подпись)

«\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_ г.

# PUDRAT SHARTNOMASI

2022y.«16»6

2022-674-2-41-OB-  
son

Shofirkon tuman

"Buxoro-Sanoat" MChJ keyingi o'rinlarda "Pudratchi" deb yuritiluvchi o'zining nizomi ustavi, asosida ish yurituvchi rahbari Sh.Usmonov timsolida bir tomondan va Shofirkon tuman obodonlantirish boqarmasi keyingi o'rinlarda "Buyurtmachi" deb yurituvchi, o'zining nizomi asosida ish yurituvchi rahbari H.Yakubov timsolida ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

## 1. ShARTNOMANING PREDMETI.

1.1.Ushbu shartnoma buyicha "Pudratchi" "Buyurtmachi" ning buyurtmasiga va tuzilgan loyiha smeta hujjatlariga asosan Shofirkon tuman Savrak MFY Quyi Savrak ko'chasini 1.5 km masofani asfaltlashtirish ishlarini bajarishni, "Buyurtmachi" esa "Pudratchi" tomonidan loyiha smeta bo'yicha bajargan ishlarni dalolatnoma asosida qabul qilib olishni hamda to'lovni o'z vaqtida amalga oshirishni o'z zimmlariga oladilar.

1.2.Ushbu shartnomaning umumiy summasi QQS bilan 467 400 000 (To'rt yuz oltmish yetti million to'rt yuz ming) so'mni tashkil etadi.

## 2. ShARTNOMA BO'YICHA KELISHUV NARXLAR.

2.1.»Buyurtmachi» tomonidan taqdim» qilingan hujjatlarga asosan ta'mirlash ishlarining qiymati QQS bilan 467 400 000 (To'rt yuz oltmish yetti million to'rt yuz ming) so'mni tashkil qiladi.

2.2. Ta'mirlash ishlarining boshlanishi «16» iyun 2022 yil.

2.3. Ta'mirlash ishlarining tugashi vaqti «30» avgust 2022 yil.

## 3.TA'MIRLASH ISHLARINI BOSHlash , BAJARISH VA TUGATISH BO'YICHA ShARTNOMAVIY MUDDATLAR

3.1. Ta'mirlash ishlarini bajarish muddati mazkur shartnomaning 2.3. bandida ko'rsatilgan muddatgacha amalga oshiriladi.

3.2. Shartnomadagi 4.1 bandida ko'rsatilgan avansni "Pudratchi" olgandan so'ng ta'mirlash ishlarini boshlaydi.

3.3. "Buyurtmachi" tomonidan ta'mirlash ishlarini bajarish davrida «Pudratchi»ga o'zi tomonidan xarid qilingan qurilish materiallarini taqdim qilishi mumkin.

3.4.Ta'mirlashni to'xtab qolganligi uchun sababchi bo'lgan tomon buning oqibatida kelib chiqadigan har qanday kamomad yoki javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

3.5.Ta'mirlashni tugallab foydalanishga topshirish uchun tuzilgan komissiya dalolatnomasi tasdiqlangandan so'ng ta'mirlash ishlari tamom bo'lgan deb hisoblanadi.

## 4. TO'LOV ShARTI VA TARTIBI

4.1.Ushbu shartnomaning umumiy narxi QQS bilan 467 400 000 (To'rt yuz oltmish yetti million to'rt yuz ming) so'mni tashkil etadi. "Buyurtmachi" ta'mirlash ishlarini boshlash uchun "Pudratchi"ga shartnoma narxining 30 % yoki 140 220 000 so'm miqdorda oldindan to'lov (avans) ni to'laydi va bu oldindan to'lov 2022-yilning shartnoma imzolanganidan keyin 5 bank ish kunida amalga oshiriladi. "Buyurtmachi" tomonidan yakuniy 70 % yoki 327 180 000 so'm to'lov "Pudratchi" ishlar

**bajarilganligini tasdiqlovchi hujjat taqdim qilgandan so'ng 30 kun ichida amalga oshiriladi.**

**4.2. "Buyurtmachi" to'lovni pul o'tkazish yuli bilan amalga oshiradi.**

4.3. "Pudrat" tashkiloti tomonidan shartnomada ko'rsatilgan summadan oshiqcha bajarilgan ishlar uchun «Buyurtmachi» tomonidan to'lovlar amalga oshirilmaydi.

## **5. PUDRATCHINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.**

5.1. Shartnoma bahosi QQS bilan **467 400 000 (To'rt yuz oltmish yetti million to'rt yuz ming)** so'm bo'lgan ta'mirlash ishlarini shartnomaning 2.3 bandida ko'rsatilgan muddatda bajarish va o'z vaqtida sifatli qilib topshirish.

5.2. Pudratchi maxsus ta'mirlash ishlarini bajarish uchun maxsus yollanma pudratchi tashkilotlarni jalb qilish huquqiga ega.

5.3. Buyurtmachini pudrat shartnomasi tuzilishi davomida subpudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi, shartnoma mavzusi, subpudratchining nomi va manzili to'g'risida xabardor qilish.

5.4. Pudratchi shartnomada nazarda tutilgan mablag' doirasida ishlarni bajaradi va shunga muvofiq bajarilgan ishlar to'g'risida dalolatnomani tuzadi.

5.5. qurilish maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muhitni, o'tqazilgan daraxtlarni va yer uchastkasini muhofaza qilish bo'yicha zarur tadbirlar bajarilishini ta'minlash;

mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektni foydalanishga qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab bir oy muddatda qurilish maydonini o'ziga tegishli qurilish mashinalari va asbob-uskunalar, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar hamda vaqtinchalik binolardan bo'shatish; qurilish maydoni qo'riqlanishini ta'minlash; mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

5.6. Pudratchi Buyurtmachidan bajarilgan xizmat uchun xaqni shartnomaning 4.1 bandida asosan kelishilgan vaqtda va miqdorda to'lanishini talab qilish huquqiga ega.

## **6. BUYURTMACHINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

6.1 "Buyurtmachi" "Pudratchi" dan ta'mirlash ishlarini o'z vaqtida hamda belgilangan standartlarga va amaldagi qonunchilikka asosan topshirishini talab qilish huquqiga ega.

6.2 "Buyurtmachi" tasdiqlangan smetasiga muvofiq budjetda nazarda tutilgan mablag' doirasida shartnoma tuzadi va shartnoma summasiga muvofiq dalolatnomani "Pudratchi" bilan birgalikda tuzadi.

6.3 ishlar bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-qurilish nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funksiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash.

6.4. Sifatsiz xizmat ko'rsatilganda "Buyurtmachi" xizmatni qabul qilib olishdan voz kechishi va kamchiliklarni bartaraf qilish to'g'risida 3 kun ichida pudratchini yozma ravishda xabardor qiladi.

## **7. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI.**

7.1. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon, ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi



Qonunida, boshqa qonun hujjatlarida hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha javobgarlikka tortiladi

7.2. Buyurtmachi Pudratchiga bajarilgan ishlar haqini o'z vaqtida to'lamaganligi uchun kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi, ammo penyaning umumiy summasi kechiktirilgan to'lov qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

Penya to'lanishi Buyurtmachini shartnoma shartlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

7.3. Shartnomaga muvofiq bajarilgan ishlar hajmini tasdiqlashdan asossiz ravishda bosh tortganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga o'zi tasdiqlashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 5 foizi miqdorida jarima to'laydi.

7.4. Pudratchi ob'ektni o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi ob'ekt shartnomaviy joriy qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

7.5. Agar bajarilgan ishlar sifati belgilangan standartlarga, qurilish me'yorlari va qoidalariga, ish hujjatlariga muvofiq bo'lmasa, Pudratchidan sifati zarur darajada bo'lmagan ishlar qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirish huquqiga ega.

7.6. Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

## **8. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SHARTLARI.**

8.1 Taraflar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan, pora berishni taklif qilmaydi, va'da bermaydi, tovlamachilik qilmaydi, pora sifatida pul to'lamaydi, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki pora, ya'ni taraflardan biri o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yoki mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olmaydi. Taraflar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rilishiga kafolat beradi.

8.2 Agar shartnoma bo'yicha bir taraf boshqa tarafning axloqqa to'g'ri kelmaydigan va ushbu shartnoma yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid keladigan hatti-harakatlariga, shu jumladan, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etishga majburlashdan iborat bo'lgan faktlarga duch kelsa, qonunchilikda belgilangan tartibda huquqni muhofaza qiluvchi organlarni xabardor qilishi shart.

8.3. Shartnomaning tarafi va u tomonidan jalb qilingan shaxslar (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslar) tomonidan korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarga rioya etilmaganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-sentabr sanasidagi PF-6313-son farmonidan kelib chiqib ikkinchi taraf shartnomani bir tarafdama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni qoplab berishni talab qilishga haqli bo'ladi

## **9. FORS-MAJOR HOLATLARI.**

9.1 Taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan, ularni oldindan bilish yoki oldini olish imkoniyati bo'lmagan holatlar (yengib bo'lmas kuch) oqibatida majburiyatlarni bajarmaganlik yoki yetarli darajada bajarmaganlik uchun taraflardan birortasi ikkinchi

taraf oldida javobgar emasdir. Bunday holatlar jumlasiga epidemiyalar, tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar kiradi.

9.2 Vakolatli organ tomonidan berilgan guvohnoma yengib bo'lmaz kuch mavjudligi va amal qilishining davomiyligini tasdiqlash uchun yetarli hujjatdir.

9.3 O'z majburiyatlarini bajara olmayotgan taraf yengib bo'lmaz kuchning mavjudligi va uning shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarishiga ta'siri haqida ikkinchi tarafga xabarnoma berishi lozim. Agar yengib bo'lmaz kuch holatlari uzluksiz 15 kun davomida amal qilib tursa va yaqin muddat ichida bekor qilinishi ehtimoli bo'lmasa, mazkur shartnoma taraflardan birining tashabbusi bilan ikkinchi tarafga yozma bildirishnoma yuborish yo'li bilan bekor qilinishi mumkin.

## 10. KELISHMOVCHILIKLARNI HAL QILISH TARTIBI.

10.1 Ushbu shartnomani tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish bilan bog'liq, tomonlar o'rtasida kelib chiqadigan, shuningdek, yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi nizolar taraflarning o'zaro kelishuvi yoxud qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sud orqali hal etiladi.

## 11. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI.

11.1. O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 122-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 28-fevraldagi 594-sonli qarorining 6-bandiga asosan budjet tashkilotlarining tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar bilan shartnomalari, shuningdek buyurtmachilarning Davlat budjeti mablag'lari hisobiga kapital qurilishga oid shartnomalari majburiy tartibda G'aznachilikda ro'yxatga olingan kundan qonuniy kuchga kiradi hamda **2022-yil 31-dekabrgacha amalda bo'ladi.**

11.2. Shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib har biri bir xil yuridik kuchga ega hisoblanadi va taraflarga bir nusxadan saqlanadi.

## 12. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI:

### «PUDRATCHI»

#### “BUXORO SANOAT” MChJ

(Tovar yetkazib beruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchining nomi)

Manzil: Buxoro shaxri Sanoatchilar ko'chasi

Tel./faks: 65-225-47-13

h/v 20208000600286882001

Bank nomi; Qishloq Qurilish bank Kogon

MFO 01037

OKONX 16272

STIR 201429130

### «BUYURTMACHI»

#### Shofirkon t. Obodonlashtirish boshqarmasi

(budjetdan mablag' oluvchi tashkilotning nomi)

Manzil: Shofirkon tumani Mirzoqul MFY

Tel./faks 502-33-39

sh/h\* 401722860062587045203118002

budjetdan mablag' oluvchi STIRi 201114223

OKONX 90211

G'aznachilik bo'linmasi nomi: Shofirkon

tuman bo'yicha G'aznachilik bo'linmasi

G'azna h/v: 23402000300100001010

Bankning nomi: Toshkent Markaziy

bankning XKKM MFO 00014

G'aznachilik SITRi 201122919



Rahbar:

Sh. Usmonov



Rahbar:

H. Yakubov

## **YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA**

### **YURIDIK XULOSA**

1. Loyi haning turi: Shartnoma.
2. Loyi haning nomi: Pudrat shartnomasi.

Shofirkon tuman Obodonlashtirish boshqarmasi va “Buxoro-Sanoat” MChJ o‘rtasidagi 467.400.000 so‘mlik Shofirkon tumani Savrak MFY Quyi Savrak ko‘chasini 1.5 km masofani asfaltlashtirish ishlarini bajarish yuzasidan shartnoma.

3.Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot: Shofirkon tuman obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan ishlab chiqilgan va 2022-yil 16-iyun sanasida markazga yuridik xulosa uchun taqdim etilgan.

Loyiha tuman obodonlashtirib boshqarmasi tomonidan taqdim etilgan ilova hujjatlari asosida ko‘rib chiqildi.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Markaz bosh yuriskonsulti**



**N.Hamroyev**